

KO'CHIMLAR KOGNITIV XUSUSIYATLARINING TARJIMA LUG'ATLARIDA AKS ETISHI

Sh. Shomurodova¹

Annotatsiya:

Maqolada ko'chimlarning kognitiv xususiyatlari zamonaviy tarjima lug'atlari kesimida qiyosiy tahlil etiladi. Lug'at makrostruktura parametrlarining tavsifi ingliz va rus tillari doirasida qiyoslanadi.

Kalit so'zlar: ko'chim, makrostruktura, mikro tuzilmaviy parametrlar, metafora, metonimiya, frazeologik birlik

doi: <https://doi.org/10.2024/zndmmf59>

Ko'chimlar yozma va og'zaki nutqning durdonalari sifatida har qanday tilning boyligi sanaladi. Ko'chimlar leksik-semantik xususiyatlarining murakkabligi bois ularning asl mohiyatini yoritish murakkab vazifa. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, zamonaviy lug'at yozuvlari hajmi doimiy ravishda kengayib bormoqda va har bir parametрни tavsiflash sifati yaxshilanmoqda. Большой англо-русский словарь. - Под общим рук. И.Р. Гальперина. - Т.1-2. - Изд. 2. - М.: Русский язык, 1977. - Т.1. - 822с.; Т.2. - 863с.; Кунин А.В. Англо-русский фразеологический словарь. -Изд.3-е, испр., в двух книгах. -М.: СЭ, 1967.- Т.1. - 738с.; Т.2. - 739-1264с.; Кунин А.В. Англо-русский фразеологический словарь. - Изд.4-е, переработанное и дополненное. - М.: Русский язык, 1984. - 942с.; Katzner, Kenneth. English-Russian, Russian-English Dictionary. - New York, 1984. - XIII. - 904p. kabi XXasrning ikkinchi yarmida nashr ettirilgan lug'atlarga nisbatan XXI asrda chop ettirilgan tarjima lug'atlari birmuncha farq qiladi. Bundan tashqari, 1973 yilda AQShda nashr etilgan Russian-English Idiom Dictionary"; o'sha yilda Londonda Borkovskiy tomonidan nashr etilgan "The Great Russian-English Dictionary of Idioms and Set Expressions" (1973); "Russian Phraseological Units in Pictures" Dubrovina (1977); Alyoxina tomonidan tuzilgan ikkala tilda eng ko'p ishlatiladigan bir necha yuz frazeologik birliklarni va ularni boshqa tillarga tarjima qilish usullarini o'z ichiga oluvchi "Short Russian-English and English-Russian Phraseological Dictionary" (Alyoxina 1980); 1988 yil Gurevich hamda Dozorez tomonidan tuzilgan Moskvada nashr etilgan "Short Russian-English Phraseological Dictionary"; 1995 yilda AQSh da nashr etilgan va Rossiyada qayta nashr etilgan Lubenskiyning "Russian-English Dictionary of Idioms" (1995); Kveselevichning "Russian-English Phraseological Dictionary" (1998); 1999 yilda nashr etilgan Arsentevaning "Russian-English Phraseological Dictionary" kabi kochilarni ikki til doirasida yoritishga xizmat qilga lug'atlar ham lingvistika xususan leksikografiya tarixida o'zo'rniga ega lug'atlar hisoblanadi [3].

Keyinchalik nashr etilgan lug'atlar mualliflari ko'chim ma'nosini tavsiflovchi ko'proq parametrlarni qo'shishga harakat qilmoqdalar. Ular jumlasiga Kuzminaning "Translator's Russian-English Phraseological

¹ *Sh.J.Shomurodova, Samarqand davlat chet tillar instituti dotsenti*

Dictionary" (2001) va Shadrinaning "Russian-English Dictionary of Stable Comparisons" (2003). Qozon davlat universiteti tadqiqotchilari tomonidan yaratilgan hamda Arsenteva (2008) tomonidan tahrirlangan Ruscha-inglizcha-nemischa-tatarcha-turkcha ko'p tilli frazeologik lug'atlarni kiritish mumkin.

Tarjima lug'atlari xususida gap ketganda, XX asrda yaratilgan tarjima lug'atlari uchun asos sifatida xizmat qilgan Kunin tomonidan tuzilgan va 1984 yilda nashr etilgan "Inglizcha-ruscha frazeologik lug'at" ni alohida e'tirof etish lozim. Binobarin ushbu lug'at Rossiyada ikki tildagi ko'chimlarni qamrab olgan lug'atlarni tuzishga katta ta'sir ko'rsatdi. U bir necha bor kengaytirilgan va qayta ishlangan hamda qayta nashr etilgan.

Ko'chimlarni o'zga til vakillariga tushuntirish va ma'nosini taqdim etish nihoyatda qiyin ish. Shu sababli buturdagi lug'atlarni tuzishning nazariy masalalari ko'plab olimlarni o'ziga tortadi. Frazeografiya tilshunoslikning bo'limi sifatida leksikografiyada to'plangan bilimlarga asoslanadi. Atoqli rus leksikografi V.P. Berkov ikki tilli lug'at yozuvidagi so'z ma'nosini tavsiflash talablari haqida ikki tilli leksikografiya muammolariga bag'ishlangan asarida ushbu muammolarni batafsil yoritgan [1]. U ikkinchi tildagi kalit so'zning semantik tuzilishi tavsifi bir tilli lug'atdagi tavsifga to'liq mos kelishi kerakligini ta'kidlaydi [1]. Bitta so'zning ma'nosini keltirishdan kora ko'chim ma'nosini tavsiflash, ancha murakkab ko'chma ma'noni topish yanada mushkul vazifa hisoblanadi. Ushbu maqsadga erishishga yordam beradigan omillarga quyidagilar kiradi: leksik birlikning taqdim etilishi, maqolada ko'proq elementlarning mavjudligi va ularning tashkil etilishi va boshqalar. Shu munosabat bilan yuqorida tilga olingan lug'atlarning har biri o'ziga xos xususiyatlarga ega.

Ikki tilli lug'atlar orasida Lubenskiyning Ruscha-inglizcha idiomalar lug'atiga alohida to'xtalish lozim. Ushbu lug'at ingliz tilida so'zlashuvchi mamlakatlarda tuzilgan uchinchi ikki tilli frazeologik lug'atdir. Yu.Apresyan va Melchuk kabi taniqli rus olimlari bilan muvaffaqiyatli hamkorlik qilish lug'atshunoslik va frazeologiyaning so'nggi yutuqlari asosida lug'at yaratish imkonini berdi. Lug'atni tuzish jarayoni taxminan 12 yil davom etdi. Lug'at 6900 dan ortiq izohlarda keltirilgan 13000 ga yaqin ruscha idiomalarni o'z ichiga oladi. Lug'atda semantik birlik vazifasini bajaradigan va ko'pincha ma'no ko'chishi bilan tavsiflanadigan ikki yoki undan ortiq so'zlarning birikmasi hisoblangan idiomalardan tashqari, boshqa turdagi kochimlar, eng ko'p ishlatiladigan 300 ga yaqin metonimiya, hikmatli sozlar, maqol va istioralar mavjud.

Tarjima jarayonida ko'chimning xususiyatlaridan biri bu grammatik ma'lumotlarini va ba'zan uning sinonimini taqdim etishdir. Mazkur lug'atda qisqartmalar ro'yxati o'z ichiga 104 ta belgini qamrab oladi. Ular ichida funksional-stilistik xususiyatga ega bo'lgan ("coll."-so'zlashuv, "highly coll."-yuqori darajadagi so'zlashuv, "substand"-past darajada); makon va zamonga ishora qiluvchilari ham ("dial." - dialektga xos, "obs."-eskirgan, "old-fash."-urfdan qolgan), emotsional belgilar ("humor"-yumor, "iron."-kinoya, "derog."), professional belgilar ("mil."-harbiy, "office"-rasmiy idoraviy) mavjud. Ro'yxatda shuningdek grammatik xususiyatga ega qisqartmalar ham mavjud ("accus."-akkuzativ kelishigi, "predict."-predikativ, "obj.-compl."-ob'yektili to'ldiruvchi, "ungrammat."-nogrammatik) va hokazolar qo'llanilgan. Bundan tashqari, odatiy qisqartmalar ("etc."-va hokazo, "smth."- biror narsa, "anim."-jonli (otlar haqida), "foll.by"-keyingi) hamda 12 xil simvollar ("()"-qavsda oppozision elementlar, "<" belgisi etimologiyani ko'rsatish uchun, [] -grammatik ma'lumot hamda tuzuvchilarning izohlarini ko'rsatish uchun) kiritilgan.

Ko'chim mazmun mohiyatini yoritish maqsadida ba'zi o'rinlarda etimologik eslatmalar qo'shilgan. Masalan, kochim tarkibida milliy-madaniy komponent bo'lsa: играть в бирюльки - < From the name of an old game in which a large number of very small objects (бирюльки) were scattered on a table and the players tried to pull out one item at a time with a small hook without disturbing the other objects. Cf. jackstraws, pick-up-sticks.

Lubenskiy lug'atidagi lug'at maqolasining ajralib turadigan xususiyatlaridan biri – sub'ekt va ob'ektni ko'rsatish uchun X va Y belgilaridan foydalanilishidir. Bu modellar inkor shaklda ham taqdim etiladi, masalan, играть в бирюльки – Neg. X не в бирюльки играет. Ma'lumotni taqdim etishning bu usuli rus tilini o'rganayotganlar uchun foydali hisoblanadi. Izohlovchi kontekst materiali foydalanuvchilar uchun katta ahamiyatga ega bo'lganligi bois mazkur lug'atni shakllantirishda mualliflar rus klassik va zamonaviy yozuvchilarning, hamda chet el yozuvchilarning asarlaridan iqtiboslar kiritishgan. Ayrim o'rinlarda ingliz tiliga professional tarjimalar ham uchramiz. Ba'zi hollarda yozuvchilar tomonidan tilga olib kirilgan ko'chimlar ham keltirilgan. Bunday kontekstual material lug'atning amaliy ahamiyatini oshiradi. Bu holat ayniqsa, ingliz tilida so'zlashuvchi foydalanuvchilar uchun ancha foydali bo'ladi.

Lug'atning inglizcha qismida ruscha frazeologik birlikning bir nechta frazeologik analoglari, shuningdek, ushbu birlikning ingliz tilidagi ta'rifi keltiriladi. Lug'atning barcha inkor etib bo'lmaydigan afzalliklariga qaramay, boshqa har qanday ikki tilli lug'at kabi, u ham ba'zi kamchiliklarga ega. Hamma rus iboralari kontekstual misollar bilan birga kelmaydi (masalan, гоняться /погнаться за двумя зайцами, вступить в закон; принять закон, пожинать /пожать лавры, небу жарко, etc.). Grammatik ma'lumotlarni taqdim etish usulini noan'anaviy va ortiqcha deb hisoblash mumkin bo'lgan holatlar ham mavjud (e.g. независимо от кого-чего [Prep; Invar: the resulting PrepP is adv], yoki скопее всего [AdvP; Invar; usu. Sent adv; fixed WO]) [5]. Rus tilidagi fe'li frazeologik birliklarning inglizcha ekvivalentlari fe'li birikmalar tarzida emas, balki otli frazeologik birliklar, ravishli frazeologik birliklar yordamida tarjima qilinadi va bu holat o'z navbatida lug'at maqolasining geterojen xususiyatini keltirib chiqaradi hamda lug'at sifatiga ta'sir ko'rsatadi. Yuqorida sanalgan kamchiliklarga qaramasdan, ushbu lug'at foydalanuvchilar uchun qimmatli manba sifatida xizmat qiladi va ingliz-rus frazeografiyasining durdonalaridan sanaladi.

Tarjima lug'atlarini shakllantirishda avvalambor makrostruktura parametrlarining tavsifi taqdim etilgan asosiy iboralar sonini, ularni tanlash va taqdim etish tartibini ishlab chiqish lozim bo'ladi. Lug'atlarning mikro tuzilmaviy parametrlarini tahlil qilishda asosiy iboralarni semantik nuqtai nazardan ko'rsatish, ularning grammatik valentligi va leksik birikmasi, stilistik belgilarini ochib berish, qo'llanish yo'llarini ko'rsatuvchi misollar keltirish, shuningdek, sinonimlar va antonimlarni tog'ri tanlashga alohida e'tibor beriladi. Lug'atni tuzishda lug'at maqolalarining axborot birligi hajmi va sifati ham belgilab olinadi. Xulosa sifatida ta'kidlash joizki, yuqoridagi kabi muammolarning qay darajada ijoboy hal etilishi yaratilayotgan tarjima lug'atining sifatini belgilaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

- [1]. Берков В.П., Мокиенко В.М., Шулежкова С.Г. *Большой словарь крылатых слов русского языка*. М.: Русские словари: Астрель: АСТ, 2000. 624 с.
- [2]. *Большой фразеологический словарь русского языка : Значение. Употребление. Культурологический комментарий / отв. ред. В.Н. Телия*. М.: АСТ-Пресс книга, 2009. 784 с.
- [3]. Грекова М.В. *Фигуративная лексикография и её место в современной русистике* // *Вопросы лексикографии*. 2016. № 2 (10). С. 18–40.
- [4]. Сафаров Ш. *Прагмалингвистика*. -Тошкент. 2008, -300б.
- [5]. Трипольская Т.А. *Семантическая структура экспрессивного слова и ее лексикографическое описание (на материале эмоционально-оценочных существительных со значением лица)*: дис.... канд. филол. наук. Новосибирск, 1984. 226 с.
- [6]. Шведова Н.Ю. *Однотомный толковый словарь (специфика жанра и некоторые перспективы дальнейшей работы)* // *Русский язык: Проблемы художественной речи. Лексикология и лексикография. Виноградовские чтения. IX–X. М., 1981. С. 166–179.*
- [7]. Black M. *Models and metaphors: Studies in language philosophy*. New York: Cornell univ. Press, 1962-267p.